

O'zbekiston-Malayziya forumida taqdimot o'tkazildi

2026 10 Aprel

Uzbekistan Airways O'zbekistonning Malayziyadagi elchixonasi bilan hamkorlikda Malakka shahrida tashkil etilgan "Hududlarni bog'lab" O'zbekiston-Malayziya forumida taqdimot o'tkazdi.





Tadbir O'zbekiston va Malayziyaning sayyohlik kompaniyalari va ishbiarmon doiralari vakillarini birlashtirdi, shuningdek, Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarga yangi sayyohlik paketlariga e'tibor qaratgan holda mamlakatning sayyohlik salohiyatini taqdim etish maydoniga aylandi.



